# Savodxonlik qiziqish va intilishdan boshlanadi

Savodxon boʻlmagan yurtning istiqboli, xalqining iqboli boʻlmasligi ayon. Prezidentimiz taʼbiri bilan aytganda, “Kelajak bugundan boshlanadi”. Shunday ekan, savodxonlik masalasi ham bolalikdan boshlanadi, takomillashtirib boriladi. Bu ogʻzaki va yozma nutqning toʻla shakllanishi natijasida savodxonlik darajasi yuksaladi, tafakkur va dunyoqarash takomillashadi.

2018 yil oktyabr-dekabr oylarida umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida ijtimoiy-maʼnaviy muhitni yanada sogʻlomlashtirish maqsadida “MEN ShU AZIZ VATAN FARZANDIMAN!” shiori ostida maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarni oʻtkazish boʻyicha chora - tadbirlar rejasidagi “Oʻquvchilarni qiziqish va intilishlaridan kelib chiqib ularning savodxonligini oshirishga koʻmaklashish” maqsadida Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti “Qishloq va suv xoʻjaligi energiya taʼminoti” fakulteti va Toshkent shahar Shayxontoxur tumani 324-sonli maktab bilan hamkorlikdagi umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida ijtimoiy-maʼnaviy muhitni yanada sogʻlomlashtirish maqsadida “MEN KITOBNI SEVAMAN” mavzusida

6-sinf oʻquvchilari oʻrtasida bellashuv boʻlib oʻtdi.

Bu bellashuvda 6-“M” sinf oʻquvchilari faxrli 1-oʻrinni egallashdi. 6-“B” sinf oʻquvchilari 2-oʻrinni, 6-“Ye” sinf oʻquvchilari esa 3-oʻrinni egalladilar.

Gʻolib oʻquvchilarga diplom va estalik sovgʻalari taqdim etildi.

“Qishloq va suv xoʻjaligi energiya taʼminoti” fakulteti maʼnaviyat-maʼrifat ishlari boʻyicha dekan muovini Sh.O.Berdiyev axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov